

UMUMTURKIY DOSTONLARDA ALP QIZLAR TIMSOLI MUSHTARAKLIGI VA ULARNI O'RGATISHNING TAHLILIIY-METODIK IMKONIYATLARI

To'ymurodova Umida Dilmurod qizi,

Buxoro davlat pedagogika institute 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada umumturkiy dostonchilik an'anasida o'ziga xos o'rin tutuvchi "alp qizlar" timsolining qadimiy ildizlari, badiiy o'xshashliklari va dostonlar syujetidagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda o'zbek, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq va o'g'uz xalq qahramonlik eposlari misolida ayol qahramonlarning mardlik va oqilalik fazilatlari qiyosiy o'rganilgan. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida talabalarning milliy qadriyatlar haqidagi bilimni boyitishda mazkur obrazlarni o'qitishning samarali metodik yo'llari va tahliliiy imkoniyatlari ilmiy asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *Alp qiz, turkiy og'zaki ijod, qiyosiy tahlil, badiiy timsol, dostonchilik, ta'limiy tahlil, milliy qadriyat, qahramonlik eposi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются древние корни, художественное сходство и роль образов «дев-богатырей» в сюжетах эпосов, занимающих особое место в общетюркской эпической традиции. В исследовании на примере узбекских, каракалпакских, киргизских, казахских и огузских народных героических эпосов сравнительно изучены качества мужества и мудрости героинь. Также научно обоснованы эффективные методические пути и аналитические возможности обучения этим образам в процессе высшего образования с целью обогащения знаний студентов о национальных ценностях.*

Ключевые слова: *Дева-богатырь, тюркское устное народное творчество, сравнительный анализ, художественный образ, эпическая традиция, образовательный анализ, национальные ценности, героический эпос.*

Abstract. *This article analyzes the ancient roots, artistic similarities, and the role of "warrior maiden" images in epic plots, which occupy a special place in the common Turkic epic tradition. In the research, the qualities of courage and wisdom of female heroes are comparatively studied using the examples of Uzbek, Karakalpak, Kyrgyz, Kazakh, and Oghuz folk heroic epics. Furthermore, effective methodical ways and analytical possibilities of teaching these characters in the process of higher education are scientifically substantiated to enrich students' knowledge about national values.*

Keywords: *Warrior maiden, Turkic oral folk art, comparative analysis, artistic image, epic tradition, educational analysis, national values, heroic epic.*

Kirish. *Turkiy xalqlar qahramonlik dostonlari millatning etnik tarixi, ijtimoiy tuzilishi va axloqiy-nafosat qarashlarini o'zida mujassam etgan eng yirik ma'naviy yodgorlikdir. Ushbu epik merosda alp qiz timsoli nafaqat badiiy personaj, balki xalqning mukammal ayol haqidagi tasavvurlari in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. G'arb adabiyotidagi ayol obrazlardan farqli o'laroq, turkiy eposlardagi alp qizlar, voqealar rivojini belgilovchi, mardlik va irodada erkak bahodirlardan qolishmaydigan mustaqil shaxslardir. Turkiy xalqlar dunyoqarashida "alp" tushunchasi nafaqat jismoniy quvvat, balki yuksak ma'naviy komillik va ijtimoiy adolat uchun kurashishni anglatadi. Alp qizlar timsoli esa qadimiy turkiy jamiyatda ayolning oila va davlat boshqaruvidagi o'rni erkaklar bilan teng bo'lganligining epik dalilidir. Bu obrazlar jahon adabiyotidagi "Amazonka" yoki "Valkiriya" kabi jangchi ayol prototiplaridan o'zining oilaviy sadoqati va milliy qadriyatlarga tayanganligi bilan tubdan farq qiladi.*

Turkiy dostonchilik an'anasida ayol obrazi jahon adabiyotidagi tobe personajlardan o'zining ijtimoiy faolligi hamda jangovar salohiyati bilan tubdan farqlanadi. Dostonlarimizdagi alp qizlar timsoli bahodirlar bilan teng jismoniy kuchga ega bo'lib, irodasi mustahkam, mustaqil qaror qabul qila oladigan sarkarda va yurt himoyachisi sifatida talqin etiladi. Bunday yondashuv turkiy xalqlarning qadimiy turmush tarzi, ayolning oila hamda jamiyatdagi yuksak maqomi, shuningdek, ularning yurt mudofaasidagi bevosita ishtiroki bilan tarixiy jihatdan izohlanadi.

Barchinoy, Guloyim, Qanikey, Jibek va Banu Chechak kabi timsollar silsilasining tahlili turkiy eposning o'zaro o'xshash jihatlarini hamda ma'naviy ildizlarining mushtarakligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Hozirgi davrda milliy o'zlikni anglash, yoshlarda ijtimoiy mas'uliyat va qat'iy irodani shakllantirishda ushbu obrazlarning badiiy-tarixiy mohiyatini yangicha pedagogik yondashuvlar asosida o'rgatish dolzarb ilmiy muammo sanaladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotning metodologik asoslarini belgilash, olingan natijalarning ilmiy haqqoniyligi hamda xolisligini ta'minlash maqsadida filologiya va pedagogika sohalarining qiyosiy-tahliliy hamda tizimli o'rganish usullaridan majmuaviy tarzda foydalanildi:

1. Qiyosiy-qiyoslama tahlil usuli. Mazkur usul yordamida beshta mustaqil turkiy xalq eposi: o'zbek xalqining "Alpomish", qoraqalpoq xalqining "Qirq qiz", qirg'iz xalqining "Manas", qozoq xalqining "Qiz Jibek" hamda o'g'uzlarning "Dada Qo'rqut" dostonlaridagi ayol qahramonlar obrazlari o'zaro muqoyasa qilindi. Tadqiqotda alp qizlar timsoliga xos bo'lgan jangovarlik, mustaqillik va vatanparvarlik kabi mushtarak badiiy asoslar tizimli ravishda guruhlashtirildi. Ushbu usul turkiy dostonchilik an'anasidagi yaxlit ma'naviy ildizlarni aniqlash hamda timsollar o'rtasidagi o'xshashliklarni ilmiy dalillash imkonini berdi.

2. Tarixiy-hayotiy yondashuv. Alp qiz timsolining shakllanish ildizlari qadimiy turkiy davlatchilik tuzumi, ko'chmanchi turmush tarzi va harbiy an'analar bilan uzviy bog'liqlikda tahlil etildi. Xususan, ayol bahodirlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faol o'rni, ularning oila va qabila boshqaruvidagi nufuzi hamda o'z davri harbiy qoidalari doirasidagi huquqiy maqomi badiiy matn dalillari asosida o'rganildi. Bu yondashuv dostonlardagi ayol obrazlarining hayotiy asosga ega ekanligini hamda milliy dunyoqarash mahsuli ekanligini ko'rsatib berdi.

3. Pedagogik tajriba-sinov ishlari. Nazariy xulosalarning amaliy samaradorligini tekshirish maqsadida Buxoro davlat pedagogika instituti talabalari o'rtasida o'quv sinovlari o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida o'quv guruhlarini nazorat va tajriba qismlariga ajratildi. Tajriba guruhlarida dostonlardagi qahramon ayollar obrazini tahlil qilishda *muammoli muloqot, qiyosiy tahlil va obrazlar xaritasi* kabi yangicha metodik yo'sinlardan foydalanildi. Natijalar talabalarning doston matni bilan ishlash malakasi va mustaqil mushohada yuritish darajasi orqali baholandi.

4. Tahliliy-miqdoriy ko'rsatkichlar usuli. Tadqiqotning yakuniy qismida pedagogik tajriba-sinov natijalari raqamli dalillar asosida qayta ishlandi. Talabalarning o'zlashtirish darajasi, mavzuni anglash darajasi va qo'llanilgan metodikaning samaradorlik darajasi hisob-kitoblar yordamida tahlil qilindi. Bu esa taklif etilayotgan yondashuvning amaliy jihatdan afzalliklarini hamda talabalarning tahliliy fikrlashini o'stirishdagi o'rnini isbotladi.

Natijalar. O'tkazilgan qiyosiy-tipologik tahlillar va pedagogik kuzatuvlar natijasida turkiy dostonlardagi alp qizlar timsoliga xos bo'lgan badiiy mushtaraklik jihatlari hamda ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlandi.

Tadqiqot obyekti sifatida olingan beshta doston tahlili shuni ko'rsatadiki, turkiy xalqlar eposida ayol qahramon obrazi yagona ma'naviy-estetik ildizga ega. Mazkur mushtaraklik quyidagi tizimli yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

1. **“Alpomish” – Barchinoy timsoli:** Barchinoyning alpligi uning *shart qo'yishida* namoyon bo'ladi. U o'ziga munosib yor tanlash uchun to'rtta harbiy shart (*poyga, kamon otish, nishon urish va kurash*) belgilaydi. Bu shartlar Barchinoyning nafaqat go'zal yor, balki harbiy mahoratda erkak bahodirlardan qolishmaydigan alp ekanini tasdiqlaydi.

2. **“Qirq qiz” – Guloyim timsoli:** Bu timsol alp qizlarning eng yuksak namunasi – *sarkarda ayol* qiyofasidir. Guloyimning alpligi uning qirqta botir qizdan iborat maxsus qo'shin tuzib, yurtni yovdan himoya qilganida ko'rinadi. U dostonlarda o'z eli uchun mustaqil qaror qabul qila oladigan jasur yo'l boshchi sifatida tasvirlanadi.

3. **“Manas” – Qanikey timsoli:** Qanikeyda alplik *donolik va to'g'ri yo'l ko'rsatuvchilik* sifatlari bilan birlashgan. U botir Manasning eng og'ir damlarida unga kuch beradi, qahramon adashganda unga to'g'ri maslahat berib, madadkor bo'ladi. Uning alpligi – xalqning birligini saqlash va qahramonni qo'llab-quvvatlashida aks etadi.

4. **“Qiz Jibek” – Jibek timsoli:** Bu obrazda alplik *iroda mustahkamligi* orqali namoyon bo'ladi. Jibek o'z sevgisi va tanlovi yo'lida hech qanday to'siqlardan qaytmaydi. Uning mardligi, o'z erki va qarori uchun kurashishi, ahdigga sobit turishi bilan izohlanadi. Jibek turkiy qizlarning ma'naviy erkinligi va irodasi ramzidir.

5. **“Dada Qo'rqut” – Banu Chechak timsoli:** Bu timsolda alp qizning *jangovar raqib* sifatidagi mardligi yaqqol namoyon bo'ladi. Banu Chechak o'z bo'lajak yori Bayrak bilan bevosita kurash tushishi va kuchda unga teng kelishi uning haqiqiy alp ekanini isbotlaydi. Bu esa o'sha davrlarda turkiy ayollarning jismoniy quvvatda erkaklar bilan bir xil darajada bo'lganini ko'rsatadi.

Mashg'ulotlar davomida talabalarning tanqidiy va mantiqiy mushohadasini faollashtirish maqsadida *muammoli muloqot* metodidan foydalaniladi. Bunda talabalarga epik qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini real ijtimoiy kontekstda tahlil qilish topshirig'i beriladi.

Muammoli muloqot topshirig'i: Tasavvur qiling, Guloyim va Jibek obrazlari bir xil vaziyatga, kutilmagan dushman hujumiga duch keldi. Ularning harakatlarida qanday mushtaraklik va farqli jihatlar namoyon bo'ladi?

Ushbu keys tahlili orqali talabalar:

Mushtaraklik: Har ikki qahramon ham el-yurt taqdiri uchun mas'uliyatni his qilishi va qat'iyat ko'rsatishini;

Farq: Guloyimning **harbiy-strategik** (qo'shin to'plash, jang qilish), Jibekning esa **axloqiy** (ahdga sodiqlik orqali birlashtirish) yo'l bilan kurashishini asoslab berdilar.

1-jadval. Turkiy dostonlarda alp qizlar timsolining qiyosiy-tipologik xususiyatlari

№	Doston nomi	Timsol	Obrazning poetik funksiyasi	Mushtarak va farqli jihati
1	"Alpomish"	Barchinoy	Oila va urug' mustahkamligi	Shart qo'yuvchi va tanlov sohibasi.
2	"Qirq qiz"	Guloyim	Vatan ozodligi	Sarkarda, qo'shin yetakchisi.
3	"Manas"	Qanikey	Millat onasi	Dono maslahatgo'y va oqila rafiq.
4	"Qiz Jibek"	Jibek	Nafosat va sadoqat	Ma'naviy sobitlik va iroda
5	"Dada Qo'rqut"	Banu Chechak	Mardlik timsoli.	Jangovar vafodorlik

Pedagogik tajriba-sinov natijalari

Alp qizlar timsolini o'rgatishning nazariy-amaliy tamoyillarini asoslash maqsadida o'tkazilgan tajriba ishlari taklif etilayotgan metodikaning yuqori samaradorligini ko'rsatdi. Tajriba guruhi talabalari doston matnini shunchaki bayon qilishdan emas, balki qahramonlar ruhiyatini qiyosiy tahlil qilish orqali o'zlashtirdilar.

2-jadval. Metodik tajriba natijalarining qiyosiy ko'rsatkichlari

№	Guruhlar	Talabalar soni	Dastlabki bilim darajasi	Yakuniy bilim darajasi	Samaradorlik farqi
1	Nazorat guruhi	25 nafar	66%	73%	+5%
2	Tajriba guruhi	25 nafar	68%	91%	+25%

"Obrazlar xaritasi" usulini darsda qo'llash tartibi:

Dars jarayonida talabalarining mavzuni chuqur tahlil qilishlari va har bir qahramonni aniq eslab qolishlari uchun "Obrazlar xaritasi" usulidan foydalanildi. Bu usul jadvalda berilgan ma'lumotlarni bir-biriga bog'lagan holda, yaxlit holda ko'rishga yordam beradi.

O'qituvchi darsda ushbu usulni quyidagicha amalga oshiradi:

1. **Markaziy g'oyani aniqlash:** Doskaning o'rtasiga barcha qahramon qizlarni birlashtirib turadigan "Alp qizlarining mushtarak sifatleri" degan yozuv yoziladi.

2. **Qahramonlarni bog'lash:** Markazdan beshta yo'nalish chizilib, har biriga qahramon nomi va ulardagi eng asosiy sifatleri yozib chiqiladi.

3. **Taqqoslash:** Talabalar jadvaldan olgan bilimlari asosida ushbu xaritani to'ldiradilar.

Ushbu usul qo'llanilganda talabalar qahramonlarni bir-biri bilan chalkashtirmay, ularning o'ziga xosligini darrov anglab oldilar. Jadvalda o'rganilgan bilimlar xarita yordamida xulosalandi. Bu esa dars samaradorligini oshirgan asosiy omillardan biri bo'ldi. Bu usul orqali har bir obrazning doston syujetidagi o'rni va asosiy vazifasi aniq ko'rsatildi.

Masalan, *Barchinoy* timsolida ayolning ijtimoiy erkinligi ko‘rinsa, *Guloyim* obrazida yurtni boshqarish salohiyati namoyon bo‘ladi. *Qanikey* o‘zining donoligi bilan ajralib tursa, *Jibek* va *Banu Chechak* timsollarida go‘zallik va mardlikning uyg‘unligi aks etgan.

Muhokama. Turkiy dostonlardagi alp qizlar timsolini o‘rganish shunchaki o‘tmishni tahlil qilish emas, balki bugungi yoshlar, ayniqsa, talaba-qizlar tarbiyasida muhim ma‘naviy-tarbiyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu obrazlar zamonaviy o‘zbek ayolining jamiyatdagi faol o‘rni, yuksak axloqi va mustaqil fikrlash qobiliyati uchun haqiqiy hayotiy namunadir. Dostonlardagi mardlik, vatanparvarlik va o‘z ahdiga sodiqlik kabi sifatlarni tahlil qilish talaba-qizlarda murakkab hayotiy vaziyatlarda irodali bo‘lish hamda o‘z haq-huquqlarini anglash tuyg‘usini shakllantiradi.

Shu bois, alp qizlar timsoli shunchaki badiiy personajlar emas, balki yosh avlodni milliy qadriyatlar ruhida voyaga yetkazishda xizmat qiluvchi jonli manbadir. Bu esa dars jarayonida adabiyotni hayot bilan bog‘lab o‘rgatishning eng samarali yo‘li hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, turkiy eposlardagi alp qizlar silsilasi (*Barchinoy*, *Guloyim*, *Qanikey*, *Jibek*, *Banu Chechak*) shunchaki badiiy personajlar emas, balki qadimiy turkiy davlatchilik an‘analari, ijtimoiy tenglik va ayol shaxsiga bo‘lgan yuksak ehtiromning epik in‘ikosidir. Ushbu timsollarning mushtarakligi turkiy xalqlarning ma‘naviy ildizlari bir ekanligini, ulardagi vatanparvarlik va salohiyat esa milliy qadriyatlarimizning hayotiylikini isbotlaydi.

Pedagogik jihatdan ushbu obrazlarni qiyosiy-tipologik metod asosida o‘rgatish talabalarning tahliliy mushohada yuritish qobiliyatini 25% ga oshirishi aniqlandi. Bu yondashuv oliy ta‘lim tizimida adabiyot o‘qitish sifatini yaxshilash bilan birga, yoshlarda milliy g‘urur, sadoqat va mustaqil shaxsiyatni shakllantirishda poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Alp qizlar mavzusini tizimli o‘qitish, turkiy xalqlarning umumiy madaniy merosini zamonaviy ta‘lim kontekstida qayta tiklashning muhim bo‘g‘inidir. Bu yondashuv yoshlarda milliy o‘zlikni anglash, gender tengligining tarixiy ildizlarini tushunish va komil insonni tarbiyalashda ishonchli ma‘naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shunday ekan, ajdodlarimizdan meros qolgan yuksak ma‘naviyat va mardlik fazilatlarini yangicha o‘qitish usullari orqali yoshlar ongiga singdirish, milliy o‘zlikni asrash hamda komil insonni tarbiyalashning eng ishonchli yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alpomish: O‘zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo‘ldosh o‘g‘li, yozib oluvchi M.Zarifov. – T.: Sharq, 2010. – 400 b.
2. Дада Куркут хикоялари / Туркий халқлар ижодидан. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: Зилола Очилова. – Т.: Yurist-media markazi, 2010. – 40 б.
3. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. – Ленинград: Наука, 1974. – 727 с.
4. Манас. Қирғиз халқ эпоси. С.Ўрозбек ўғли варианты бўйича; Қирғ. С.Акбарий тарж.; Кириш сўзи Ч.Айтматовники. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 200 б.
5. Қырық қыз. Қарақалпақ халық дәстаны. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1993. – 176 б.

6. Кыз Жибек: казахская народная лиро-эпическая поэма. – Москва: Художественная литература, 1975. – 136 с.
7. Эшонкул Ж. Миф ва бадий тафаккур. – Тошкент: Фан, 2019. – 288 б.
8. O'raeva D., Otajonova M., Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. O'quv qo'llanma. – Buxoro: Fan Ziyosi nashriyoti, 2024. – 208 b.

